

TILDAGI “RANG” MA'NOSINI BILDIRUVCHI SO'ZLAR MATN TARKIBIDA QO'LLANILISHINING PRAGMATIK TAHLILI VA ULARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Abduvoitov Ravshanbek Alijonovich

Andijon davlat texnika instituti “Tillar va gumanitar fanlar”

kafedraasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi “rang” ma’nosini bildiruvchi so’zlar matn tarkibida qo’llanilishining pragmatik tahlili va ularni o’zbek tiliga tarjima qilish muammolari haqida bo’lib, unda ushbu mavzu misollar bilan atroflicha keng yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: rang, ma’no, leksema, ezgulik ramzi, adekvat tarjima, she’riyat janri, oq, qora, kontekst, frazeologik birlik, motam.

Atrofimizni o’rab turgan dunyo turli xil ranglardan tashkil topgan mavjudotlardan iborat va ularning har biri turli xalqlarda turlicha ma’no kasb etadi. Rang dunyo ob’yektining asosi va ko’rish hissi sifatida qabul qilinadi. Masalan Xitoyda oq rang to’y uchun mos kelmaydigan rang bo’lib, u motam rangidir. Agar kelin to’y uchun oq nikoh ko’yilagini tanlasa, uning ota-onasi unga shubhasiz turmushga chiqishga ruxsat bermaydi. Hindistonda, hatto xristian to’ylarida agar kelinlar oq ko’ylak kiyishsa, u odatda boshqa biror xil rang bilan birga aralashtiriladi. Agar turmushga chiqqan ayol boshqa rang qo’shilmagan oq ko’ylak kiysa, bu uni baxtsizlik va bevalik kutayotganini bildiradi. Boshqa xalqlarda esa oq rang sofdillik, poklik, beg’uborlikni bildiradi.

Xitoy madaniyatida ranglar ustida izlanishlar olib borilganda, ba’zi bir ranglar qarama-qarshi ma’no1arga ega ekanligi kuzatiladi. Misol uchun ko’k rang bir vaqtning o’zida ham motam ma’nosini ham umid, ishonch ma’nosini bildiradi. Siyoh rang ham motam belgisi bo’lib, ijobiy ma’noga ham ega. Ingliz va o’zbek tillaridagi “rang” ma’nosini bildiruvchi leksik-semantik maydonini tashkil etuvchi leksemalar miqdor jihatidan ham, distributsiya jihatidan ham, semantik va stilistik ko’lami jihatidan ham bir-biriga mos tushmaydi. Bu ikki

tildagi mazkur sohada mos tushadigan holatlar 10-15 foizni tashkil etadi xolos. Bu esa ushbu leksik - semantik maydon unsurlarining turli tillardagi joylashuvi tartibi va ishlatilishi ko'lamini o'rganish hozirgi zamon tilshunosligini o'rganish uchungina emas balki muhokama qilinayotgan tushunchalarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va berilishi masalalarini keng yoritish uchun ham katta xizmat qilishi mumkin.

Badiiy adabiyotlarda ranglarning tarjimasida adekvat tarjima emas balki kontekstual ta'imadan foydalanish kerak. Ranglar ayniqsa badiiy adabiyotning she'riyat janrida juda ko'p ishlatiladi.

Har bir so'z o'zi istifoda etiladigan tilde shunday ma'nolarni anglatadiki, boshqa tildagi shunga muqobil so'z o'sha ma'no'larni qisman, bir qadar yoki bir taraflama qoplasa-da, ko'pincha jiddiy farq qiladi. Masalan, inglizcha "white", ruscha "белый", o'zbekcha "oq" so'zlarini olaylik. Ma'lumki oqlik, ravshanlik, yorug'lik hamma xalqlarda ham qoralik, zulmat, baxtsizlikka zid o'laroq, ezgulikni anglatadi. Lekin bundan hamma tillarda ham "oq" ma'nosida qo'llanuvchi so'zlar bir-biriga aynan muvofiq keladi, deb bo'lmaydi.

Ingliz tilidagi "White as a sheet"- "choyshabday", "qog'ozday" oq degani. O'zbeklarda ham qog'oz oqlik ramzi, tasavvurda bunday tushunchaning paydo bo'lishiga uning tabiiy xossasi asos bo'lgan. Biroq "choyshabday oq" degan frazeologik qolip yo'q, bizda "dokaday oq" deyiladi.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi "white as a milk"- белый как мел ons sutday oq birikmalarining ma'nosi aynan to'g'ri keladi. Yana "White as a snow"- "белый как снег" - qorday oppoq birikmalarida uchchala tilda ham qor oqlikni ifodalaydi. Ammo "white as a chalk"- "белый как мел" birikmalari ingliz va rus tillarida bir-biriga yaqin bo'lgani holda, "bo'rdek oppoq" degan qiyos o'zbek tiliga xos emas. "White as wool"-junday oppoq esa faqat ingliz tiligagina xosdir, negaki, na rus tilida va na o'zbek tilida jun oqlik tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi.

Oqlik hamma xalqlarda ham ezgulik ramzi ekan, albatta, bu uning asosiy, yetakchi ma'nosidir. Lekin ba'zi hollarda oqlik musibatli tushunchalarni ham anglatadi va bu tillarda turlicha namoyon bo'ladi.

Masalan ingliz tilida "white slave"-oq cho'ri degani bo'lib, bu yaramas ishlar bilan

shugʻullanishga majbur qilingan “fohisha qiz” ma’nosini bildiradi. O'zbek tilida “oq qilmoq” hamda “oqpadar” tushunchalari otasi tomonidan la’natlangan farzandga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilidagi “green” so’zi o'zbek tiliga “yashil”, ayrim paytlarda esa “ko’k” deb tarjima qilinishi mumkin: “green fields” - yashil dalalar, ko’m-ko’k dalalar, “greenery”-ko’kat, “зелёный” (dollariga nisbatan)- ko’ki, garchi dollarning rangi ko’k emas yashil bo’lsa-da. Yoki “голубой экран -zangori ekran. Ekraning nimasi zangori ekan? Buni tushunish qiyin. Balki birinchi chiqarilgan televizorlarning ekrani yashil bo’lganligi uchun shu nom berilgandir.

Xalqlarning turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashlari va axloqida turli maxsus tushunchalar, norma va tamoyillar qaror topadiki, bularning hammasi tilda ham bevosita aks etadi. Aytaylik, tropik iqlim sharoitida yashovchi xalqlar qor nimaligini tasavvur qila olmas ekanlar, ularning tilida “qorday oppoq” degan qiyosning ham yo’qligi o’z- o’zidan ma’lum.

Matn tarkibida qo’llanilgan ko’p ma’noli rangni bildiruvchi leksik va frazeologik birlikning chinakam ma’no va funktsiyasi u foydalanilgan vaziyat, kontekst yordamidagina oydinlashadi. Binobarin tarjima amaliyoti dalillarning kontekst asosida umumlashtirilishi muayyan ob’yektiv nazariy xulosalarga olib kelishi bilan birga tarjimachilik ravnaqiga ham so’zsiz ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shunday qilib, rang ma’nosini bildiruvchi so’zlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganimizda kalka yoki kontekstual ta’ima usullaridan foydalanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Layonz DJ. Osnovi teoreticheskoy lingvistiki, M., Progress, 1976
2. Salomov G’. Til va tarjima, Toshkent, Fan, 1996
3. Musayev Q. Tarjima nazariyasi, Toshkent, 2004